INKLYUZIF TA’LIMDA VAQTDAN TO‘G‘RI FOYDALANISH USULLARI

Bazarov Sardor Kenjaboy o‘g‘li
O‘qituvchi, Pedagogika va psixologiya kafedrasi
Guliston davlat pedagogika institute

Annonatsiya: Bu maqolada Inklyuzif ta’lim jarayonida vaqt taqsimoti, undan unumli foydalanish hamda vaqtdan to‘g‘ri foydalanish usullari haqida yozilgan. Buyuk allomalarimiz so‘zlari Vaqt oqar daryo u hech qachon to‘xtab turmaydi. Mavzuga oid xalqaro tajribalar chet el olimlarining vaqtdan unumli foyadalanish samaraga olib kelish haqidagi amaliyot va nazariyalari.

Kalit so‘zlar: Vaqt, inklyuzif talim, xalqaro tajriba, samaradorlik, vaqt qadri, ulug‘ nemat, menejer, reja, fikrlash.

Abstract: This article discusses time allocation in the process of inclusive education, effective use of time, and methods for managing it efficiently. The sayings of great scholars emphasize that “time is like a flowing river - it never stops.” The article also explores international experiences, including the practices and theories of foreign researchers on how the effective use of time leads to success.

Keywords: time, inclusive education, international experience, efficiency, value of time, precious blessing, manager, planning, thinking.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы распределения времени в процессе инклюзивного образования, эффективного использования времени и методы рационального управления им. Великие мыслители говорили: «Время - как текущая река, оно никогда не останавливается». В статье также анализируется международный опыт, а также практики и теории зарубежных учёных о том, как рациональное использование времени способствует достижению успеха.

Ключевые слова: время, инклюзивное образование, международный опыт, эффективность, ценность времени, великая благодать, менеджер, планирование, мышление.

Amerikalik sotsiolog J. Koulman tomonidan taklif etilgan oqilona tanlov nazariyasi ijtimoiy fikrlashning tobora ommalashgan variantiga aylanib bormoqda. U tizimning tushunchalarini rad etadi. Resurs tushunchalari va safarbarlik masalalariga e’tibor qaratiladi. M. Kroze bilan birgalikda J. Koulman tashkilot ichida ijtimoiy harakatlar nazariyasini ishlab chiqdi va qarorlarni qabul qilish jarayonini o’rganish va samaradorligini aniqlashda g‘oyalarni emas, balki turli strategiyalarning muhimligini ta’kidladi. Bu vaqtni samarali tashkil etish tizimini o’rganish evolyutsiyasi bilan bog’liq. Batafsil o‘ziga xoslik uchun "menejment" atamasi (hozirgi ma’noda - ilmiy asoslangan professional boshqaruv faoliyati) va "time management" (vaqtni boshqarish bo’yicha menejer qobiliyatlari) ning barqaror terminologik birikmasi paydo bo’lgandan beri g‘oyani ko‘rib chiqish kerak.

Vaqtni boshqarishning uch bosqichi mavjud. G‘arbda olimlar o‘z ishlarida xodimning aqliy mehnati emas, balki jismoniy samaradorligiga e’tibor berishadi. Agar biz xodimlarga bo’lgan munosabatning umumiy moyilligini ajratib olishga harakat qilsak, u holda xodim passiv ob’ekt deb hisoblanadi. Shu bilan birga, Teylor ishni tez va samaradorligi bo’yicha xodimga asossiz talablar qo’yadigan ishni tashkil qilishning "terlash tizimlari" ni tanqid qilgan. Teylorning aytishicha, "terlash 39 tizimlari" va "tabiiy dangasalik" o’rtasidagi "oltin o’rliq", vaqtni boshqarish kabi muhim sohani o’zida mujassam etgan ilmiy ishlab chiqarishni boshqarish usullarida aniqlanadi. Taylor, A.Fayol, G.Ford, F. va L.Gilbret, G.Gant, G.Emerson va boshqa mashxur shaxslarning asosiy maqsadi – zamonaviy tashkilotlarning faoliyatida foydalanilishi mumkin bo’lgan unumdorlikni oshirishning asosiy tamoyillarini shakllantirishdan va shuningdek menejerlar va mutaxassislarning shaxsiy samaradorligini oshirishdan iborat. Shunday qilib, menejmentni boshqarish darajasida xodimlarning shaxsiy samaradorligi muammolarini ko‘rib chiqish zarurligi haqidagi g‘oyani ta’kidlagan ilmiy boshqaruv maktabining klassikasiga yaqinlashishi aqliy, ijodiy va boshqaruv mehnatining nisbati ortib borayotgan vaqtda bizning davrimizga tegishli deb hisoblanishi mumkin. Vaqt –

qadri ulug’ ne’mat. Vaqt haqida, uning qadr-qimmati, undan unumli foydlanishimiz lozimligi haqida milliy ma’naviy merosimizda, islom dinida ham fikrlar bildiriladi. Vaqt – go‘yo hayot kiyimi to’qiladigan iplar bo‘lib, uning pishiq va nafisligiga qarab hayot aziz va bebaho bo’ladi. Agar iplar yomon va to‘zigan bo‘lsa hayot ham tuban, bema’no va mazmunsiz bo’ladi. Vaqtning yana bir xususiyati agar u o’tib ketsa, qaytib kelmaydi. Vaqt inson sarf qiladigan asosiy dastamoyasidir. U qanchalik ko’p bo’lsa ham ozdir. Oz bo’lsayu barakali bo’lsa, u ko’pdir. Inson o’z hayotining har bir daqiqa va lahzasidan unumli va barakali foydalanib, uni yaxshi amallar qilishga sarflashi lozimdir. Shunda u Hazarati Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) marhamat qilib aytgan hadisi shariflari mazmuniga muvofiq ish tutgan bo’ladi. Rasuliakram (s.a.v) dedilar: “Qiyomat kunida bandaning qadami to to’rt narsadan so’ralmaguncha joyidan jilmaydi; umrini qanday o’tkazgani, yoshligida nima qilgani, molini qaerdan topib nimaga sarf qilgani, ilmiga qay darajada amal qilgani haqida” – deyiladi. Islom ta’limoti yalqovlik, loqaydlik, beparvolik kabi ijtimoiy illatlardan uzoqda bo’lishga, undan panoh tilashga amr qiladi va har vaqt har kuni erta turib, xayrli amallarni qilishga, hamda yoshlik, sihat-salomatlik, boylik, bo’sh vaqt va dunyo hayotini g’animat bilishga chorlaydi. Imom atTermiziy rivoyat qilgan ushbu xadisda Rasululloh s.a.v nasihat kilib: “Besh narsani besh narsadan oldin g’animat biling: keksalikdan oldin yoshlikni, betoblikdan oldin salomatlikni, faqirlikdan oldin boylikni, bandlikdan oldin bo’sh vaqtingni, o’limingdan oldin tiriklikni g’animat biling”. –dedilar. Ulug’ ajdodlarimiz kunlarini, vaqtu soatlarini foydali ish qilishga, go’zal ahloqiy va ilmiy darajalarga etishish yo’lida sarf qilishda doim ogoh va sergak edilar. Shuning uchun ham ularning bugunlari kechagisidan, ertangi kunlari bugungisidan a’lo va afzal bo’lardi. Ular: “Vaqt qilichdir, agar sen uni kesmasang u seni kesadi” -degan hikmatli so’zga amal qilishgan. Har birimiz o’tayotgan kunimiz, vaqtimizdan ibrat olmog’imiz lozim. Zero, kecha va kunduz yangilarni eskirtiradi, uzoqlarni yaqin qiladi, umrlarni qisqartiradi, yoshlarni qaritadi, keksalarni foniylik sari etaklaydi.

Donishmandlardan biri shunday deydi: “Kim kunini bekorga o’tkazsa, bir yaxshi amalni qilmasa, insonlarga chiroyli so‘z yoki yaxshi muomala qilmasa, bir ilmu ma’rifat hosil qilmasa, u kuniga jabr qilib, o’ziga zulm qilibdi”. Dono xalqimizda bir maqol bor, unda shunday deyiladi:“Vaqting ketdi, baxting ketdi”. Ha, vaqt go’yo ulug’ baxt kabidir, uni g’animat bilmaslik katta gunohdir: Kunlar, vaqtlar tinmay o’tsa-yu, qaytib kelmas daqiqalarimizga beparvo bo’lsak, bundan pandu-nasihat olmasak, ikki dunyo saodatiga aslo musharraf bo’la olmaymiz. Albatta, oqilu donishmand inson atrofga ibrat nazari bilan boqadi, dunyoda kechayotgan hodisa va o’zgarishlarga, oltindan qimmatli vaqtni qadrlash zarurligini qalbida tasdiqlaydi va shunga muvofiq ish tutadi. Ulug’ piru murshidlardan biri Bahouddin Naqshband hazratlari bunday deb marhamat qilganlar: “Kim vaqtini zoe ketkazsa, vaqt uning dushmaniga aylanadi, nafasning zoe bo’lishiga yo’l qo’ymang va undan ehtiyot bo’ling”. Donishmandlardan biri aytganidek, biz uchun umrimiz necha kundan iboratligi emas, balki bugungi kunimizda, ayni lahzalarda qanday yashay olishimiz muhim. Zero, ulug’lar aytganidek, odamzot hayoti tejalgan vaqtga qarab uzayadi. Jamiyatimizdagi barcha insonlar, ular kim va qanday mavqega ega bo’lmasinlar, ayniqsa, kelajagimiz bo’lgan yoshlarimiz, aziz farzandlarimiz oltindan qimmat vaqt va undan unumli foydalanish va uni g’animat bilishi lozimdir. Buning uchun har bir kishi hayotdagi mas’uliyatini 40 chuqur anglagan holda ish tutmog’i zarur bo’ladi. Shuning uchun yoshi ulug’ keksalarimiz, muhtaram ota-onalar farzandlarimiz ta’lim-tarbiyasiga beparvo bo’lmasligimiz, ularni o‘z vaqtlarini to‘g‘ri, solih foydali amallar qilishga sarflashni o‘rgatishimiz kerak. Oqil kishi vaqtga beparvo bo‘lishi mutlaqo mumkin emas. Xasis odam mol-dunyoga ziqna bo’lganidek, dono kishi ham vaqti bekor ketishiga rozi bo‘lmasligi kerak. Inson ba’zan o‘zi yashab o‘tkazgan hayotga qaraydi. Hayoti boshlangan soatdan xisoblab, shuncha yil, shuncha kun yashabman-a, deydi. Lekin bu

muddat unga bir kun o‘tganga ham o‘xshamaydi. Inson bu haqiqatni shu dunyoning o‘zidayoq his etmoqda.

Inklyuziv ta’limda vaqtdan to‘g‘ri foydalanish – bu o‘qituvchidan professional mahorat, rejalashtirish qobiliyati, innovatsion yondashuv va hamkorlik ko‘nikmalarini talab etadigan murakkab vazifadir. Ushbu usullarni qo‘llash orqali biz har bir o‘quvchining, shu jumladan, maxsus ta’limga muhtoj bolalarning ham sifatli ta’lim olishini ta’minlashga erishamiz. Bu esa, o‘z navbatida, inklyuziv jamiyat qurish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzullayev, A. (2021). *Vaqt menejmenti va ta’lim jarayonida samarali rejalashtirishning ahamiyati*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Karimov, I. A. (1996). *Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir*. Toshkent: O‘zbekiston.
3. Al-Termiziy, Imom. (IX asr). *Jomi’ as-Sahih*. Hadis to‘plami.
4. Naqshband, Bahouddin. *Tasavvuf ta’limotidan hikmatlar*. (Manba: “Naqshbandiya merosi” to‘plami, Toshkent, 2002).
5. Omonov, M. (2020). *Inklyuziv ta’limda o‘qituvchining vaqtni boshqarish ko‘nikmalari*. “Ta’lim va innovatsiyalar” jurnali, №3, 45–50-betlar.
6. Rasulullоh (s.a.v.) hadislaridan: *“Besh narsani besh narsadan oldin g‘animat biling…”* (Imom at-Termiziy rivoyati).